



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 12 sentyabr

№ 1935

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Dadaxanov Adxam Xadjiyevich – odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Andijon viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Jalaquduq tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Rasulov Sardorbek Shadmanbekovich – odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Andijon viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Oltinko'l tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Ismailov Nozimjon Rustamovich – odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzganligi hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Chust tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Boltayev Asliddin Azimovich – yozma ariza berganligi sababli O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xasanov Umrbek Udamovich – yozma ariza berganligi sababli O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Xorazm viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov